

## YAPONIYA SHAHARSOZLIGINING TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHI YANGI TURAR JOYLARINING RIVOJLANISHI

*Muallif: Kayumova Shaxrizoda*

*Muassasa: Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Fakultet: Filologiya va tillarni o'qitish*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yaponiya shaharsozligining tarixi va rivojlanish bosqichi yangi turar joylarning rivojlanishi haqida fikr yuritilgan. Yaponiya o'zining barqaror iqtisodiyoti va shaharsozligi tufayli dunyoning eng rivojlangan davrlaridan biri hisoblanadi. Turar joylarning sanoati va aholining haddan tashqari ko'payishi sababli qavatli turar joylarning rivojlanishiga kelishi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** shaharsozlik, shaharsozlik bosqichlari, barqaror shaharsozlik, shaharsozlik hujjatlari, shahar rejalashtirish akti, yerdan foydalanish akti, yangi turar joy konsepsiysi, jamiyat sharoitlari, biznes markazlari, ko'p funksiyali shaharlarni yatarish.

### **Kirish:**

Yaponiya — Osiyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri bo'lib, uning shaharsozlik tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Bu mamlakat o'zining tabiiy sharoitlari, tarixiy merosi va texnologik taraqqiyoti bilan ajralib turadi. Yaponiya shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi qadimiy davrlardagi ibodatxonalar atrofida yuzaga kelgan qishloq posyolkalaridan tortib, zamonaviy megapolislargacha bo'lgan uzoq va murakkab jarayonni o'z ichiga oladi. Shaharsozlikdagi bu evolyutsiya ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayniqsa, Ikkinchchi jahon urushidan keyingi davrda sezilarli sur'atda jadallahshdi. Bugungi kunda esa Yaponiya yangi turar joylarni loyihalash va barpo etishda ekologik muvozanat, texnologik yangiliklar va urbanistik qulayliklarga katta e'tibor qaratmoqda. Ushbu maqolada Yaponiya shaharsozligining tarixiy bosqichlari va yangi turar joylarning rivojlanish tamoyillari atroflicha tahlil qilinadi. Yaponiya davlatki geografik joylashuvi, tabiiy resurslarning cheklanganligi va aholining zinch joylashuvi tufayli o'ziga xos shaharsozlik tajribasiga ega. Uzoq asrlik tarix davomida bu mamlakat urbanizatsiya jarayonida turli davr va siyosiy boshqaruv shakllariga moslashgan holda, samarali shahar rejalashtirish tamoyillarini ishlab chiqqan. Yaponiya shaharsozligining rivojlanishi tarixiy bosqichlar asosida tahlil qilinadigan bo'lsa, bu jarayon qadimiy buddaviy va shinto markazlaridan boshlab zamonaviy texnologiyalar asosidagi yuqori zinchlikdagi megapolislargacha bo'lgan yo'lni o'z ichiga oladi.

### **Asosiy qism:**

**1.Tarixiy bosqichlar.** Yaponiyada shaharsozlikning dastlabki bosqichlari Nara (VIII asr) va Heian (IX–XII asrlar) davrlariga to'g'ri keladi. Bu davrda shaharlar diniy va siyosiy markazlar sifatida shakllangan, ko'pincha Xitooning Tang sulolasidagi shaharsozlik modeliga asoslangan. Edo davrida (1603–1868) Tokugava shogunligi ostida shaharlar ma'muriy va iqtisodi markazlarga aylana boshladi. Aynan shu davrda bugungi Tokio (sobiq nomi Edo) shahrining shakllanishi boshlandi. Shahar atrofida kengaytirilgan Edo qal'asi (hozirgi Imperator saroyi) markazida joylashgan bo'lib, uning atrofida samuraylar, savdogarlar va hunarmandlar uchun alohida mahallalar tashkil etildi. Shahar rejalashtirilishida siyosiy va ijtimoiy tabaqalanish aniq ko'rinish turardi. Edo davrida shahar ko'plab yong'inlar bilan yuzlashdi, ulardan eng kattasi 1657 yildagi Meireki yong'ini bo'lib, taxminan 100,000 kishining hayotiga zomin bo'ldi. Bu yong'inlar shaharsozlikda

o‘zgarishlarga olib keldi: keng ko‘chalar, yong‘inga chidamli omborlar va ochiq maydonlar qurildi.

**2. Modernizatsiya va sanoatlashuv.** Meiji restavratsiyasidan (1868) so‘ng Yaponiya tez sur’atlarda modernizatsiya yo‘liga o‘tdi. G‘arbiy shaharsozlik modellaridan ilhomlangan holda, yangi yo‘llar, ko‘priklar, temir yo‘llar va sanoat zonalari tashkil etildi. 1923-yilgi Kanto zilzilasi va Ikkinchiji jahon urushidagi bombardimonlar shahar infratuzilmasiga katta zarar yetkazgan bo‘lsa-da, urushdan keyingi yillarda Yaponiya urbanizatsiyani tezlashtirdi. Yangi hukumat G‘arb davlatlarining shaharsozlik tajribasini o‘zlashtirib, infratuzilmani modernizatsiya qildi: temiryo‘l tarmoqlari, gaz yoritish tizimlari, telefon aloqa va zamonaviy binolar qurildi. 1888 yilda qabul qilingan “Tokio shahrini yaxshilash to‘g‘risidagi qonun (Tokyo City Improvement Ordinance) shaharni zamonaviylashtirishga asos bo‘ldi. Ginza tumani, 1872 yildagi yong‘indan so‘ng, G‘arbcha uslubda qayta qurildi: tosh yo‘laklar, gaz chiroqlari va zamonaviy do‘konlar bilan bezatildi. Bu hudud tez orada savdo va madaniyat markaziga aylanadi .  
[SEP]

**3. Yangi turar joylar va zamonaviy shaharlar.** 1960-yillardan boshlab Yaponiya yangi turar joy massivlarini rivojlantirishga katta e’tibor berdi. Bu davrda “yashil hududlar”, jamoat transportiga yaqin joylashgan turar joylar va zamonaviy ijtimoiy infratuzilmalar loyihamandi. Masalan, Tama New Town, Chiba New Town kabi loyihamalar bu boradagi yirik namunalardan hisoblanadi. Yaponiya shaharsozligi ming yillik tarixga ega bo‘lib, u tabiiy resurslar, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar va texnologik taraqqiyot bilan chambarchas bog‘liq. Mamlakat geografik jihatdan tog‘li hududda joylashgan bo‘lib, yer resurslarining cheklanganligi shaharsozlikda samarali rejalar tuzishni talab qilgan. Bugungi kunda Yaponiya zamonaviy shaharsozlikda dunyoda ilg‘or o‘rinda turadi, ayniqsa yangi turar joylar va aqli shaharlar konsepsiysi orqali.

Bugungi kunda Yaponiya urbanizatsiyada quyidagi muhim tamoyillarga amal qilmoqda: ekologik barqarorlik, aholi zichligini samarali boshqarish, texnologik innovatsiyalar (aqli shaharlar), zilzilabardosh qurilish uslublari va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan dizayn.

### O‘z navbatida yaponiyada urbanizatsiya va shaharsozlik jarayonlarining rivojlanishi 9ta bosqichga bo‘lish mumkin.

**1-bosqich:** Shaharsozlikni g‘arblashtagan davri (1868-1887). 1868–1887 yillar oralig‘i Yaponiya tarixida tub burilish davri bo‘lib, bu davr Meiji islohoti bilan boshlanadi. Feodalizm barham topib, davlat sanoatlashuv va modernizatsiya yo‘lini tanladi. Aynan shu yillarda shaharsozlik sohasida ham tub o‘zgarishlar yuz berdi: g‘arb shaharsozlik uslublari, texnologiyalari va arxitekturaviy tamoyillari mamlakatga joriy qilindi.

**2-bosqich:** Shaharsozlikni rivojlanishi (Shikukaei) davri (1880-1918). Yaponiya shaharsozligining Shikukaeki (ya’ni “urbanizatsiya davri”) deb ataluvchi 1880–1918 yillari mamlakatda sanoat inqilobi va modernizatsiya jarayonlarining kuchaygan bosqichi bo‘lib, urbanizatsiya jadal sur’atlар bilan amalga oshdi. Bu davrda yangi turar joylar paydo bo‘lishi, aholining shaharlarga ommaviy ko‘chib kelishi va zamonaviy shahar muhitining shakllanishi Yaponiya shaharsozligi tarixida muhim burilish bo‘ldi. Shikukaeki davrida yangi turar joylarda yashovchi aholining turmush tarzida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. G‘arbcha hayot uslubi asta-sekin kengayib, jamoat binolari, bog‘lar va xizmat ko‘rsatish maskanlari orqali shahar hayoti boyib bordi. Bu turar joylar ijtimoiy integratsiyani kuchaytirib, Yaponiya jamiyatining urbanistik o‘zgarishlariga moslashishini tezlashtirdi.

**3-bosqich:** Shaharlarni rejalashtirish tizimini joriy etish davri (1910-1935). 1910–1935 yillar oralig‘i Yaponiyada shaharlarni ilmiy va huquqiy asosda rejalashtirish boshlangan davr bo‘lib, bu jarayon urbanizatsiya sur’atlarining tezlashuvi, sanoatlashtirish va aholining

keskin o'sishi bilan bevosita bog'liq edi. Shu davrda turar joylarni rejalashtirish va qurish, transport tarmoqlarini joylashtirish, shahar infratuzilmasini to'g'ri tashkil qilish orqali Yaponiya zamonaviy urbanistik asoslarni shakllantirdi. 20-asr boshlarida yirik shaharlarda — ayniqsa Tokio, Osaka va Nagoyada — aholining haddan tashqari ko'pligi, sog'liqni saqlash muammolari, notekis qurilish va transport muvofiqlashtirilmaganligi og'ir urbanistik muammolarni keltirib chiqardi. Bundan tashqari, 1923 yilda yuz bergan Kanto zilzilasi Tokioning katta qismini vayron qildi va shaharni zamonaviy uslubda qayta qurish zaruratini tug'dirdi.

**4-bosqich:** Urush davri shaharsozligi (1931-1945). 1931–1945 yillar oralig'i Yaponiya tarixida "urush davri" deb nomlanadi. Bu davrda mamlakat Ichki Osiyoda ekspansionistik siyosat olib borib, Xitoy va boshqa hududlarda harbiy mojarolarga aralashdi. Bunday harbiy faollik Yaponiya ichidagi iqtisodiy, sanoat va urbanistik o'zgarishlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, shaharsozlik siyosati davlat nazorati ostida kuchli markazlashtirilgan tus oldi. Urush davrida Yaponiyada shaharlар rivojlanishining asosiy omili harbiy ehtiyojlar bo'ldi. Davlat sanoatlashuvni tezlashtirdi va bu yirik shaharlarda harbiy sanoat markazlarining rivojlanishiga olib keldi. Xususan, Tokio, Osaka, Kobe va Nagoya kabi shaharlarda harbiy zavodlar, arsenal va ta'minot omborlari qurildi.

Harbiy sanoatning kengayishi sababli yirik shaharlarga ishchilar oqimi kuchaydi. Bu esa yangi turar joylar qurilishini taqozo etdi. Shaharlар atrofida ishchi posyolkalari (kasabaturar joylar) paydo bo'ldi. Biroq, bu turar joylar asosan vaqtincha va minimal qulayliklarga ega bo'lib, tezda qurilgan edi. Ular ko'pincha yog'ochdan qurilgan bo'lib, zinch joylashuvi va sanitariya sharoitlarining yomonligi bilan ajralib turardi. 1930-yillarning oxiri va 1940-yillarning boshida Yaponiya hukumati shaharsozlikni markazlashtirishga harakat qildi. 1941 yilda "Shahar va qishloqlarni rejalashtirish to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi. Bu qonun orqali yangi turar joylar, ishlab chiqarish zonalari va transport tarmoqlari harbiy va strategik maqsadlarga moslashtirildi. Shaharlар rejalashtirilayotganda ularning bombalash xavfiga chidamliligi ham e'tiborga olindi.

Urush yakuniga borar ekan, ayniqsa 1944–1945 yillarda AQSh havo kuchlari tomonidan amalga oshirilgan bombardimonlar Yaponiya shaharlарini katta talafotga uchratdi. Tokio, Osaka, Yokogama kabi yirik shaharlarda millionlab odamlar boshpanasiz qoldi. Bu holat urush davrida barpo etilgan ko'plab yangi turar joylarning ham yo'q bo'lishiga olib keldi.

**5-bosqich:** 2-jahon urushidan keyingi shaharlarni qayta qurish davri (1945-1954). Ikkinci jahon urushi yakunlangach, Yaponiya tarixida chuqur iz qoldirgan vayronagarchiliklar davri boshlandi. 1945 yildagi yadro bombalashlar va boshqa havo hujumlari oqibatida Tokio, Hiroshimaning katta qismi, Nagasaki va boshqa shaharlар deyarli butunlay vayron bo'ldi. Bu holat Yaponiya hukumati va xalqini tezkor va tizimli tarzda qayta qurish ishlariga kirishishga majbur qildi. 1945–1954 yillar oralig'i Yaponiya shaharsozligida qayta tiklanish va yangi turar joylar barpo etilishi bosqichi sifatida muhim o'rinn tutadi. Urush tugagach, Yaponianing shaharsozlik faoliyati ittifoqchi kuchlar, xususan AQSh boshchiligidagi okkupatsiya hukumati nazorati ostida olib borildi. Bu davrda Yaponiya hukumati "Shaharlarni tiklash to'g'risida"gi qonunlarni qabul qildi. Tokio, Osaka, Yokogama, Kobe, Hiroshimaning qayta qurilishi rejalashtirilgan hudud asosida olib borildi.

Yangi rejalarida shaharlarning funksional zonalarga bo'linishi (sanoat, turar joy, transport, ijtimoiy xizmatlar zonalari) ustuvor bo'ldi. Bundan tashqari, yangi qurilishlar xavfsizlik va yong'inga chidamlilik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirildi. Urushdan keyin millionlab yaponlar uysiz qolgani sababli turar joylar qurilishi ustuvor

yo‘nalishlardan biriga aylandi. 1946 yildan boshlab davlat va mahalliy hokimiyatlar tomonidan ommaviy uy-joy qurilishi dasturlari yo‘lga qo‘yildi.

**6-bosqich:** Asosiy qonunning yo‘qligi davrida shaharsozlikni rivojlantirish (1955-1968) 1955-1968 yillar Yaponiya tarixida iqtisodiy o‘sishning keskin sur’atlar bilan kuchaygan davri sifatida tanilgan. Bu davrda Yaponiya “iqtisodiy mo‘jiza” yo‘liga kirgan bo‘lsa-da, shaharsozlik tizimida hali to‘liq kuchga ega bo‘lgan asosiy yuridik me’yorlar mavjud emas edi. Qonunchilikdagi bo‘shliqlar, rejalashtirishdagi chalkashliklar va tez urbanizatsiya sharoitida turar joylar qurilishi sezilarli o‘zgarishlarga uchradi. 1949 yildagi “Shaharsozlik to‘g‘risida”gi vaqtinchalik qonunlar va 1950-yillardagi ba’zi tartiblar mavjud bo‘lsa-da, yagona, umumiy va majburiy ijroga ega bo‘lgan milliy urbanistik qonun yo‘q edi. Bu holat quyidagi muammolarga olib keldi:

- Shaharlarning tartibsiz kengayishi;
- Qishloqlarning urbanizatsiya bosimi ostida yo‘qolib borishi;
- Yashash uchun yaroqsiz, zinch joylashgan va noqulay hududlarning ko‘payishi;
- Yer egaligi bo‘yicha nizolar, noqonuniy qurilishlar va rejasiz turar joylar paydo bo‘lishi.<sup>[SEP]</sup>

Iqtisodiy o‘sish sanoat markazlarining kengayishiga va qishloqlardan shaharlarga ko‘chish jarayonining tezlashishiga olib keldi. Bu esa uy-joy inqirozini keltirib chiqardi.

**7-bosiqch:** Yangi qonun davri (1968-1985). 1968-yil Yaponiya shaharsozligi tarixida burilish nuqtasi bo‘ldi. Bu yilda kuchga kirgan “Shaharsozlik to‘g‘risidagi yangi qonun” mamlakatdagi tartibsiz urbanizatsiyani nazorat qilish, ekologik va ijtimoiy muvozanatni saqlash hamda zamonaviy turar joylar barpo etish bo‘yicha aniq me’yoriy asos yaratdi. 1968-1985 yillar Yaponiya shaharsozligining huquqiy, rejalashtirish va ijtimoiy barqarorlik tamoyillariga asoslangan rivojlanish davridir. 1968-yilgi Shaharsozlik qonuni Yaponiya bo‘ylab shaharlarni rejalashtirish va rivojlantirishda bir xil yondashuvni joriy etdi. Qonunning asosiy maqsadlari quyidagilar edi:

- Urbanizatsiyani muvofiqlashtirish;
- Turar joy, sanoat va yashil zonalarni qat’iy ajratish;
- Yangi shaharlarni rejalashtirishda ekologik va ijtimoiy muvozanatni saqlash;
- Transport infratuzilmasini rivojlantirishni rejalashtirish bilan uyg‘unlashtirish.

Bu qonun asosida Yaponiya hududi urbanizatsiya hududi (urbanized area) va cheklangan urbanizatsiya hududi (urbanization control area) deb ajratildi. Bu esa tartibsiz qurilishlarning oldini olishda katta rol o‘ynadi.

**8-bosqich:** Noqulay rejalashtirish va ko‘pikli iqtisodiyot davri (1982-1992). 1980-yillarning ikkinchi yarmi Yaponiya tarixida “ko‘pikli iqtisodiyot” (泡沫経済 — *baburu keizai*) davri sifatida tanilgan. Bu davrda moliyaviy bozorlar va ko‘chmas mulk bozori haddan ziyod qimmatlashdi, natijada shaharsozlikda muvozanat buzildi. 1982-1992 yillar orasidagi shaharsozlik jarayonlari iqtisodiy shishish, yer spekulyatsiyasi, rejalashtirilmagan qurilishlar va uy-joy inqirozi bilan bog‘liq bo‘ldi. Ushbu maqola shu davrda yuzaga kelgan muammolar va yangi turar joylarning shakllanishi haqida so‘z yuritadi. 1980-yillarda Yaponiya iqtisodiyoti tez sur’atlar bilan o‘sdi. Tashqi savdo, texnologik rivojlanish va kapital bozorlarning erkinlashuvi ko‘chmas mulk sektoriga katta miqdorda investitsiya oqimini jalb qildi. 1991-yilda moliyaviy pufak yorilib, ko‘chmas mulk bozori inqirozga uchradi. Bu shaharsozlikda yangi davrni boshlab berdi – muvozanatli rivojlanish, aholi ehtiyojlarini inobatga olgan rejalashtirish va ekologiyaga e’tibor qayta tiklana boshladи.

**9-bosqich:** Fuqarolar tomonidan boshqariladigan, markazlashtirilmagan shahar rejalashtirish davri (1992-2003). 1992-2003 yillar Yaponiya shaharsozligida muhim burilish bo‘ldi: markazlashtirilgan, yuqorida pastga yondashuvdan voz kechilib, fuqarolar

ishtirokidagi, mahalliy ehtiyojlarga asoslangan, ekologik va barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tildi. Bu davrda yangi turar joylar inson ehtiyojlariga yo‘naltirilgan holda qurildi, jamiyat va muhit bilan uyg‘unlikda rivojlandi. Shu sababli, ushbu bosqich Yaponiya shaharsozligi tarixida demokratik va barqarorlik tamoyillariga asoslangan yangi davrni boshlab berdi.

### **Uy-joylarning ommaviy ta’minoti**

Tez iqtisodiy o‘sish sababli shahar hududlariga aholining to‘planishiga javoban, shaharlarda va ularning chekka hududlarida keng ko‘lamli turar joy massivlari barpo etildi. Eng yuqori davrda yiliga 60 000 dan ortiq turar joy birliklari taqdim etilgan. Bundan tashqari, biz texnologik jihatdan ham yetakchi bo‘lib, ko‘p qavatli uylarning qurilishi va samarali qurilish uslublarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

### **Katta yangi shaharchalarning rivojlanishi**

Shahar atroflarida keng miqyosli yangi shaharchalarni rivojlantirish ishlari olib borildi hamda ko‘plab uylar va yer maydonlari taqdim etildi. Biz loyiha rejasining ishlab chiqilishidan to uning amalda amalga oshirilishigacha bo‘lgan barcha bosqichlarda ishtirok etdik va bu orqali Yaponiyada jamoa rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdik.

### **Jozibador va ko‘p funksiyali shaharlarni yaratish**

Sanoat va aholining haddan tashqari shaharlarga to‘planishiga qarshi kurashish uchun ko‘p markazli, muvozanatli rivojlangan shaharlarni yaratishga qaratilgan loyihalarini amalga oshirdik. Shu bilan birga, urushdan keyingi keskin urbanizatsiya davrida qurilgan zaif infratuzilmani yaxshilash va falokatlarning oldini olish funksiyalarini kuchaytirishga e’tibor qaratdik. 1995-yilda sodir bo‘lgan Buyuk Hanshin-Avaji zilzilasi oqibatlarini bartaraf etishda ham faol ishtirok etdik.

Xalqaro biznes markazlarini yaratish va falokatlardan keyingi tiklanishni qo‘llab-quvvatlash Superqarib borayotgan jamiyat muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan yashash muhiti barpo etish, siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaharsozlik Islohotlari orqali global raqobatbardoshlikni kuchaytirish bilan birga, 2011-yilda sodir bo‘lgan Buyuk Sharqiy Yaponiya zilzilasi oqibatlarini bartaraf etish Ishlarida ham faol qatnashdik.

**Xulosa:** Yaponiya shaharsozligi tarixan murakkab va bosqichma-bosqich rivojlangan tizim bo‘lib, unda milliy madaniyat, tabiiy sharoit va texnologik taraqqiyotning uyg‘unligi ko‘zga tashlanadi. Yangi turar joylarning loyihalanishi va qurilishi nafaqat urbanistik ehtiyojlarga javob beradi, balki yashash sifatini yaxshilash, ekologik muvozanatni saqlash va zamonaliviy muhandislik yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Kelajakda ham Yaponiya urbanizatsiya borasida jahon tajribasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishda davom etishi kutiladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://planning-org-uploaded media.s3.amazonaws.com/documents/UrbanPlanningSystem\_all.pdf
2. <https://www.gdrc.org/uem/observatory/jp-laws.html>
3. chrome-  
[://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.jcie.org/researchpdfs/RoadPluralism/plu\\_furukawa.pdf](://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.jcie.org/researchpdfs/RoadPluralism/plu_furukawa.pdf)
4. <https://www.ur-net.go.jp/overseas/about/index.html>
5. [http://jcie.org/researchpdfs/RoadPluralism/plu\\_furukawa.pdf](http://jcie.org/researchpdfs/RoadPluralism/plu_furukawa.pdf)